



**JINOIY JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISH ORQALI
JINOYAT-HUQUQIY SIYOSATNI MO‘TADILLASHTIRISH
MASALALARI**

Bahriddinov Davlatbek

Abu Rayhon Beruniy universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada zamonaviy davlatning jinoyat-huquqiy siyosatini mo‘tadillashtirish va liberallashtirish sharoitida jinoiy javobgarlikdan ozod qilish institutining nazariy, huquqiy hamda amaliy jihatlarini atroflicha tahlil etilgan. Maqolada shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning huquqiy tabiatiga, insonparvarlik, odillik hamda mutanosiblik tamoyillari bilan o‘zaro bog‘liqligiga, shuningdek, shaxsni jamiyatdan ajratmagan holda qayta tarbiyalash va resotsializatsiya qilish mexanizmlariga alohida e‘tibor qaratilgan. Muallif jinoiy javobgarlikdan ozod qilish asoslarini yanada takomillashtirish, jabrlanuvchining huquqlarini ishonchli muhofaza qilish, yetkazilgan zararni qoplash tizimini samarali yo‘lga qo‘yish hamda muqobil nizo vositalari va mediatsiyani jinoyat odil sudloviga chuqurroq tatbiq etish bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif hamda tavsiyalarni ilgari suradi.

Kalit so‘zlar: jinoyat-huquqiy siyosat, liberallashtirish, mo‘tadillashtirish, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish, insonparvarlik tamoyili.

Insoniyat jamiyati taraqqiyotining hozirgi bosqichida davlat hamda jamiyat o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga solishda jazo choralarini qat’iylashtirish emas, aksincha, huquqiy ta’sir choralarini oqilona, mutanosib va insonparvar tarzda qo‘llash ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy huquqshunoslikda jinoyat-huquqiy siyosatning eng asosiy vazifalaridan biri jazolash tizimining repressiv xarakterini kamaytirish, ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan hamda uncha og‘ir bo‘lmagan qilmishlar uchun qat’iy jazo choralarini qo‘llashdan voz kechish hamda shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning differensiallashgan mexanizmlarini kengaytirishdan iboratdir. Jinoyat-huquqiy siyosatni mo‘tadillashtirish tushunchasi jinoyatchilikka qarshi kurashishda davlatning majburlov apparatidan oqilona foydalanishini, profilaktik va rag‘batlantiruvchi normalar doirasini kengaytirishni hamda jinoyat sodir etgan shaxsni jamiyatdan ajratmagan holda qayta tarbiyalash va uning ijtimoiy moslashuvini ta’minlashni nazarda tutadi. Ushbu jarayonda jinoiy javobgarlikdan ozod qilish instituti jinoyat huquqining markaziy va eng ta’sirchan vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish instituti shunchaki davlat tomonidan beriladigan shafqat yoki iltifot ko‘rinishi emas, balki gumanizm, odillik,



shaxsiy javobgarlik va jazoning muqarrarligi tamoyillarining o'zaro mutanosib muvozanatidir. Shaxs qilmishining ijtimoiy xavflilik darajasi, uning shaxsiyati, jinoyat sodir etilgandan keyingi ijtimoiy foydali xulq-atvori, qilmishidan chin ko'ngildan pushaymon bo'lganligi hamda yetkazilgan zararni ixtiyoriy ravishda qoplaganligi kabi holatlar unga nisbatan jinoyat-huquqiy ta'sir chorasini qo'llash zaruratini yo'qotishi mumkin. Davlatning kuchi va qudrati faqatgina qat'iy penal sanksiyalarni qo'llashda emas, balki shaxsga to'g'ri yo'lga kirish uchun imkoniyat berishda, jamiyat va jinoyat sodir etgan shaxs o'rtasidagi ijtimoiy nizoni tinch hamda adolatli hal etishda ko'rinadi.

Jinoyat-huquqiy siyosatni mo'tadillashtirish jarayoni jinoyat va jazo tushunchalariga bo'lgan an'anaviy qarashlarni qayta ko'rib chiqishni talab etadi. Uzoq yillar davomida jinoiy javobgarlik va jazo deganda ko'proq mahkumga muayyan mahrumlik va cheklovlar yuklash, uni jamiyatdan ajratish va qat'iy majburlov ta'siriga uchratish tushunilgan. Biroq kriminologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jazolarni asossiz ravishda qat'iylashtirish va ozodlikdan mahrum etish jazosini keng qo'llash har doim ham jinoyatchilik darajasining kamayishiga yoki qayta jinoyat sodir etilishining oldi olinishiga olib kelmaydi. Aksincha, ozodlikdan mahrum qilish muassasalarida uzoq muddat bo'lish shaxsning ijtimoiy aloqalarini uzilishiga, uning kriminogen submadaniyat ta'siriga tushishiga hamda kelgusida jamiyatga moslashuvini qiyinlashtirishiga sabab bo'ladi. Shu sababli, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish instituti orqali davlat shaxsga nisbatan repressiv mexanizmlarni qo'llashdan voz kechib, uni jamiyat ichida saqlab qolgan holda axloqan tuzatishni maqsad qiladi.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning moddiy-huquqiy asoslari, birinchi navbatda, sodir etilgan qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasining kamayishi yoki uning butunlay yo'qolishi bilan bog'liqdir. Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan shartlar va asoslar qilmishga chin ko'ngildan pushaymon bo'lish, shaxsning o'z ixtiyori bilan aybini bo'yniga olib kelishi, jinoyatni ochishga faol ko'maklashishi, yetkazilgan moddiy va manaviy zararni to'liq qoplashi hamda jabrlanuvchi bilan yarashishi kabi holatlar shaxsning va u sodir etgan qilmishning ijtimoiy xavfliligi yo'qolganligini tasdiqlovchi obyektiv omillar hisoblanadi. Jinoyat-huquqiy siyosatni mo'tadillashtirishda ushbu rag'batlantiruvchi normalarning doirasini aniq belgilash hamda ularning amaliyotda bir xil va adolatli qo'llanilishini ta'minlash nihoyatda muhimdir.

Yarashuv instituti va jinoiy javobgarlikdan ozod qilish o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik mo'tadillashtirish siyosatining eng muhim ustunlaridan biridir. Yarashuv bu faqatgina jinoyat prosesining ishtirokchilari o'rtasidagi bitim emas, balki jinoyat natijasida buzilgan ijtimoiy adolat va huquqiy muvozanatni tiklashning tiklovchi odil sudlov (restorative justice) tamoyillariga asoslangan zamonaviy vositasidir. Jinoyat sodir etilishi natijasida faqat davlatning huquqiy



tartiboti buzilib qolmaydi, balki birinchi navbatda muayyan shaxsning, ya'ni jabrlanuvchining huquq va manfaatlariga poymol etiladi. Shunday ekan, jinoyat-huquqiy ta'sir chorasining birinchi galdagi maqsadi jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni qoplash va uning buzilgan huquqlarini tiklash bo'lishi lozim. Agar aybdor shaxs o'z qilmishini anglab yetgan bo'lsa, jabrlanuvchiga yetkazilgan moddiy va manaviy zararni to'liq bartaraf etsa hamda jabrlanuvchi unga nisbatan hech qanday e'tirozga ega bo'lmasa, bunday shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish va unga jazo tayinlash jamiyat va davlat uchun ijtimoiy hamda iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emasdir.

Jinoyat-huquqiy siyosatni mo'tadillashtirishda sudlarning odil sudlovni amalga oshirishdagi o'rni va rolining o'zgarishi ham muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Sud faqatgina aybdorlikni aniqlab, jazo beruvchi organdan jinoyat sodir etilishiga olib kelgan sabab hamda shart-sharoitlarni har taraflama baholovchi, huquq va manfaatlarini tiklovchi, jamiyatdagi ijtimoiy totuvlikni ta'minlovchi muassasaga aylanishi kerak. Sudyalar tomonidan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish to'g'risida qaror qabul qilishda har bir ishning individual xususiyatlari, shaxsning xarakteristikasi va uning kelgusidagi xulq-atvor ehtimoli chuqur tahlil qilinishi zarur. Diskretion vakolatlaridan, ya'ni sudyaning o'z huquqiy obro'si va qonunga tayanib muayyan doirada mustaqil baho berish huquqidan adolatli va xolis foydalanilishi jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning samaradorligini oshiradi.

Shu bilan birga, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish orqali jinoyat-huquqiy siyosatni mo'tadillashtirish masalasi muayyan huquqiy va kriminologik xatarlardan xoli emas. Eng asosiy xatarlardan biri bu jazo muqarrarlighi tamoyilining qadsizlanishi yoki liberallashtirishning asossiz kengaytirilishi natijasida jamiyatda jazosizlik kayfiyatining shakllanishi xavfidir. Agar jinoyat sodir etgan shaxs har qanday holatda ham javobgarlikdan qutulib qolish imkoniyati borligiga ishonch hosil qilsa, bu holat jinoyatchilikning umumiy hamda maxsus profilaktikasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, liberallashtirish va mo'tadillashtirish choralari hech qachon nazoratsizlik yoki ma'suliyatsizlik sifatida talqin qilinmasligi kerak. Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish faqat va faqat qonunda qat'iy va aniq belgilangan shartlar mavjud bo'lganda va shaxsning qayta jinoyat sodir etmasligiga, uning ijtimoiy xavfsiz ekanligiga to'liq ishonch hosil qilingandagina qo'llanilishi lozim.

Iqtisodiy va tadbirkorlik faoliyati sohasidagi jinoyatlar bo'yicha jinoiy javobgarlikdan ozod qilish mexanizmlari mo'tadillashtirish siyosatining alohida yo'nalishi hisoblanadi. Jamiyatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, investitsiyaviy muhitni yaxshilash va tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish sharoitida iqtisodiy sohadagi qilmishlar uchun repressiv jazo choralari qo'llash har doim ham kutilgan natijani bermaydi. Iqtisodiy



jinoyatlarning tabiatidan kelib chiqqan holda, davlat va jamiyat uchun asosiy manfaat bu qat'iy jazo berish emas, balki davlat byudjetiga yoki fuqarolarga yetkazilgan moddiy zararning o'rnini to'liq qoplashdir. Shuning uchun, iqtisodiy sohadagi jinoyatlarni sodir etgan, lekin yetkazilgan zararni belgilangan muddatlarda to'liq qoplagan va davlat hamda jamiyat oldidagi moliyaviy majburiyatlarini bajargan shaxslarni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish amaliyoti o'zining yuqori ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligini isbotlamoqda. Bu bir tomondan davlat byudjetiga moddiy resurslarning qaytishini ta'minlasa, ikkinchi tomondan tadbirkorlik subyekting faoliyatini davom ettirishiga, ish o'rinlarining saqlanib qolishiga imkon beradi.

Jinoyat-huquqiy siyosatni mo'tadillashtirishning yana bir muhim tarmog'i bu voyaga yetmaganlar o'rtasidagi jinoyatchilikka qarshi kurashish va ularni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish xususiyatlaridir. Voyaga yetmagan shaxsning psixologik hamda ijtimoiy rivojlanish darajasi, uning hayotiy tajribasining yetarsizligi, boshqalar ta'siriga beriluvchanligi va o'z qilmishining oqibatlarini to'liq anglab yetmasligi unga nisbatan alohida jinoyat-huquqiy yondashuvni talab qiladi. Voyaga yetmaganlarni jinoiy javobgarlikdan ozod qilib, ularga nisbatan majburiy tarbiyaviy ta'sir choralari qo'llash orqali ularning kelajakda to'g'ri yo'ldan borishi ta'minlanadi. Ilk bor ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etgan o'smirni jinoiy jazoga tortmaslik va uni qamoq jazosidan yiroq tutish uning kelajakda jinoyat dunyosiga sho'ng'ib ketishining oldini oladi. Shu sababli, juvenile adliya, ya'ni voyaga yetmaganlar odil sudlovi tizimini rivojlantirish va ularni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish imkoniyatlarini kengaytirish jinoyat-huquqiy siyosatni mo'tadillashtirishning ustuvor yo'nalishlaridandir.

Jinoyat va jinoyat-prosessual qonunchiligini takomillashtirishda mediatsiya institutining roli va o'rnini mustahkamlash ham jinoiy javobgarlikdan ozod qilish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mediatsiya bu xolis xususiy uchinchi taraf (mediator) ko'magida nizo va nizoli huquqiy munosabatlarni muqobil hal etish vositasidir. Jinoyat huquqida mediatsiyani qo'llash nizo ishtirokchilariga o'zaro muloqot qilish, bir-birini tushunish, zararni qoplash va yarashish shartlarini erkin belgilash imkonini beradi. Mediatsiya jarayoni orqali erishilgan yarashuv natijasida shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ish hajmini kamaytiradi, davlat resurslarini tejaydi va jinoyat prosesining tezkorligini oshiradi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sudlar faoliyatida jinoiy javobgarlikdan ozod qilish normalarini qo'llashda korrupsiyaviy omillar hamda subyektiv baholash holatlarining oldini olish ham alohida e'tiborni talab qiladi. Qonunchilikda jinoiy javobgarlikdan ozod qilish asoslari va shartlari imkon



qadar aniq, ravshan va bir ma'noli ifodalanishi zarur. Huquqni qo'llovchi organga haddan tashqari keng va shaffof bo'lmagan ixtiyoriy baholash imkoniyatining berilishi muayyan suiiste'molliklarga olib kelishi mumkin. Shu munosabat bilan, jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning rasmiy va noaniq kriteriyalaridan voz kechib, formal hamda obyektiv tekshirilishi mumkin bo'lgan mezonlarni belgilash lozim. Masalan, zararni to'liq qoplashning aniq tasdiqlari, jabrlanuvchining erkin va hech qanday tazyiqsiz bildirilgan roziligi hamda jinoyatni ochishga qo'shilgan muayyan hissa kabi faktlar hujjatlashtirilgan bo'lishi kerak.

Xalqaro va xorijiy tajribani tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, rivojlangan huquqiy sistemalarga ega bo'lgan davlatlarda jinoyat-huquqiy siyosatni mo'tadillashtirish va jinoiy javobgarlikdan ozod qilish mexanizmlari juda moslashuvchan va ko'p bosqichli shakllangan. Ko'plab Yevropa mamlakatlarida (Germaniya, Fransiya, Shvetsiya) hamda AQShda jinoiy ta'qibni shartli ravishda to'xtatish, shartli ravishda javobgarlikdan ozod qilish (probatsiya) hamda jinoyat-huquqiy kafil bo'lish institutlari keng qo'llaniladi. Ushbu davlatlarda shaxs muayyan muddat davomida sudyaning yoki maxsus inspeksiya organining nazorati ostida bo'ladi hamda belgilangan majburiyatlarni (masalan, jamoat ishlarini bajarish, davolanish kursini o'tash, jabrlanuvchiga kompensatsiya to'lash) muvaffaqiyatli bajarsa, u jinoiy javobgarlikdan yoki jazo olishdan butunlay ozod qilinadi. Bu kabi ilg'or xalqaro standartlar va amaliyotlarni milliy qonunchilikka moslashtirgan holda tatbiq etish O'zbekiston Respublikasining jinoyat-huquqiy siyosatini yanada takomillashtirishga va mo'tadillashtirishga zamin yaratadi.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish orqali jinoyat-huquqiy siyosatni mo'tadillashtirish nafaqat moddiy va prosessual huquq normalarini o'zgartirishni, balki jamiyatning huquqiy o'y-xayolini va huquqiy madaniyatini ham o'zgartirishni talab qiladi. Afsuski, jamiyatda ba'zan har qanday jinoyat uchun, hatto uncha og'ir bo'lmagan qilmishlar uchun ham albatta og'ir jazo berilishi kerak degan stereotipik qarashlar uchrab turadi. Biroq odillik va insonparvarlik jamiyatning yetukligi va huquqiy madaniyatining yuqoriligini ko'rsatuvchi asosiy ko'rsatkichlardir. Jamiyat a'zolari shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish bu jazosizlik emas, balki buzilgan munosabatlarni unumli tiklash va shaxsga qayta jamiyatga moslashish imkoniyatini berish ekanligini anglab yetishlari lozim. Bunda ommaviy axborot vositalari, ilmiy jamiyat hamda huquqshunoslar tomonidan olib boriladigan tushuntirish va targ'ibot ishlari muhim rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish orqali jinoyat-huquqiy siyosatni mo'tadillashtirish bu zamonaviy demokratik va huquqiy davlatni barpo etishning ajralmas shartidir. Ushbu jarayon jinoyat



huquqining insonparvarlik, odillik va mutanosiblik kabi poydevor tamoyillariga asoslanib, jamiyat xavfsizligini ta'minlash va shaxs huquqlarini ishonchli himoya qilishga xizmat qiladi. Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish asoslarini yanada kengaytirish, yarashuv va mediatsiya institutlarini rivojlantirish, iqtisodiy hamda voyaga yetmaganlar sohasidagi liberal yondashuvlarni chuqurlashtirish orqali davlat jinoyatchilikka qarshi kurashishda yuksak samaradorlikka hamda ijtimoiy barqarorlikka erishadi. Milliy jinoyat qonunchiligini izchil islohot qilish davomida o'zaro mutanosiblik va muvozanatni saqlash, ya'ni bir tomondan insonparvarlik va liberallashtirishni ta'minlash, ikkinchi tomondan esa jamiyat va fuqarolarni jinoyatdan ishonchli himoya qilish jinoyat-huquqiy siyosatning eng oliy va strategik maqsadi bo'lib qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. Toshkent: Adolat, 2024. 416 b.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-prosessual kodeksi. Toshkent: Adolat, 2024. 512 b.
3. O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonuni, 03.07.2018 yildagi O'RQ-488-son // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2018 y., 7-son, 410-maddasi.
4. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Umumiy qism. 1-tom: Darslik. Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2021. 544 b.
5. Ismoilov R.A. Jinoyat-huquqiy siyosatni liberallashtirish va jinoiy javobgarlikdan ozod qilish institutini takomillashtirish: Monografiya. Toshkent: TDYU nashriyoti, 2020. 210 b.
6. Kabulov R.K., Mirzayev T.M. Jinoyat huquqida insonparvarlik va odillik tamoyillarining namoyon bo'lishi: O'quv qo'llanma. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2019. 180 b.
7. Xatamov A.A. Yarashuv va mediatsiya institutining jinoyat huquqidagi amaliy va nazariy muammolari // Huquq va burch. Toshkent, 2022. № 4. B. 15–22.
8. Ashurov U.S. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikni mo'tadillashtirish va rag'batlantiruvchi normalar samaradorligi // O'zbekiston qonunchiligi tahlili. Toshkent, 2023. № 2. B. 45–51.
9. Yakovlev A.M. Ugolovno-pravovaya politika i osvobojdeniye ot ugolovnoy otvetstvennosti: Sravnitelno-pravovoy analiz. Moskva: Yurist, 2020. 285 s.



10. Ashworth A., Horder J. Principles of Criminal Law. 9th edition. Oxford: Oxford University Press, 2019. 560 p.
11. Roxin C. Strafrecht. Allgemeiner Teil. Band I: Grundlagen. Der Aufbau der Verbrechenslehre. 4. Auflage. München: C.H. Beck, 2006. 1085 S